# X. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI

**Foyda.** Hisobot ma'lumotlariga ko'ra, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida iqtisodiyot tarmoqlaridagi korxona va tashkilotlar tomonidan 12471,6 mlrd. so'm miqdorida yakuniy moliyaviy natija olindi.

2021- yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda, foyda hajmi 664,7 mlrd. so'mga yoki 105,6 %ga ko'paygan.

**2022- yilning yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yakuniy moliyaviy natijalar**

| | *Foyda, zarar (-), mlrd. so'm* | *2021- yil yanvar-avgustiga nisbatan %da* |
|---|---|---|
| **Jami** | **11911,2** | **108,5** |
| Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | -27,6 | |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 12001,8 | 107,5 |
| Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash | -228,0 | |
| Qurilish | 5,2 | 40,6 |
| Savdo | 130,7 | 106,6 |
| Tashish va saqlash | 2,8 | |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | -5,0 | |
| Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar | 7,5 | 75,3 |
| Professional, ilmiy va texnik faoliyat | 2,1 | 109,6 |
| Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish | 0,6 | 2,6 m. |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 16,7 | 118,9 |
| Boshqalar | 4,4 | |

Ijobiy moliyaviy natija (foyda)ning asosiy qismi ishlab chiqaradigan sanoat (12146,2 mlrd. so'm), savdo (178,1 mlrd. so'm) va Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni (18,6 mlrd. so'm) amalga oshiruvchi korxonalarga to'g'ri keldi.

2022- yilning yanvar-avgust oylarida o‘tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda, foydaning asosiy o‘sishi "O‘zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati (475,4 mlrd. so‘m), "O‘zbekiston metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati (169,6 mlrd. so‘m), "O‘zbekgidroenergo" aksiyadorlik jamiyati (77,1 mlrd. so‘m) tarkibiga kiruvchi korxonalarga to‘g‘ri keldi.

**2022- yilning yanvar-avgust oylarida hududlar kesimida yakuniy moliyaviy natijalar**

| | *Foyda, zarar (-), mlrd. so‘m* | *2021- yil yanvar-avgustiga nisbatan %da* |
|---|---|---|
| **Viloyat bo‘yicha:** | **11911,2** | **108,5** |
| *shaharlar:* | | |
| Nurafshon | 8,0 | 184,4 |
| Olmaliq | 9375,1 | 102,1 |
| Angren | -187,3 | |
| Ohangaron | 226,6 | 146,8 |
| Bekobod | 1275,2 | 123,3 |
| Chirchiq | 737,8 | 145,1 |
| Yangiyo'l | 33,6 | 2,3 m. |
| *tumanlar:* | 0,0 | |
| Oqqo‘rg‘on | 8,4 | 12,5 m. |
| Ohangaron | -44,1 | |
| Bekobod | -4,2 | |
| Bo‘stonliq | 70,7 | 157,4 |
| Bo‘ka | 0,0 | 90,5 |
| Quyi Chirchiq | -0,6 | |
| Zangiota | 62,2 | 65,8 |
| Yuqori Chirchiq | 0,7 | 7,9 |
| Qibray | 115,0 | 165,5 |
| Parkent | 8,4 | 3,0 m. |
| Piskent | 17,1 | 3,3 m. |
| O‘rta Chirchiq | 1,4 | 93,4 |
| Chinoz | 6,9 | 5,0 m. |
| Yangiyo‘l | 71,9 | 110,1 |
| Toshkent | 128,4 | 117,8 |

Foydaning pasayishi "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati (- 132,6 mlrd. so‘m), "O‘zbekiston temir yo‘llari" aksiyadorlik jamiyati (- 785 mln. so‘m), "O‘zbekneftgaz" aksiyadorlik jamiyati (- 457,7 mln. so‘m), tarkibiga kiruvchi korxonalarda kuzatilgan.

Hududlar kesimida foydaning asosiy qismi Olmaliq shahar – 9375,1 mlrd. so‘m (jami foydaning 78,7 %i), Bekobod shahar – 1275,2 mlrd. so‘m (10,7 %), Chirchiq shahar – 737,6 mlrd. so‘m (6,2 %) va Ohangaron shahar – 226,5 mlrd. so‘m (1,9 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Zararlar**. 2022- yilning yanvar-avgust oylarida 69 ta korxona va tashkilotlar 560,5 mlrd. so‘m zarar bilan faoliyatini yakunladi.

Zararning asosiy qismi "O‘zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati – 62,0 mlrd. so‘m (jami zararning 11,1 %i), O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi – 54,6 mlrd. so‘m (9,7 %), O‘zbekiston to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalari uyushmasi – 16,1 mlrd. so‘m (2,9 %) va O‘zbekiston Respublikasi yog‘-moy sanoati korxonalari uyushmasi – 8,1 mlrd. so‘m (1,4 %) tarkibiga kiruvchi korxonalar hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2022- yilning yanvar-avgust oylarida zarar ko‘rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**
*(jamiga nisbatan %da)*



**2022- yilning yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha zarar ko‘rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**

| | *Korxonalar soni* | *Zarar summasi* | |
|---|---|---|---|
| | | *mln. so‘m* | *jamiga nisbatan %da* |
| **Jami** | **69** | **560465,4** | **100,0** |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 29 | 144460,7 | 25,8 |
| Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni kondisiyalash | 7 | 310928,8 | 55,5 |
| Qurilish | 2 | 5406,8 | 1,0 |
| Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va motosikllarni ta’mirlash | 11 | 47366,3 | 8,5 |
| Tashish va saqlash | 2 | 669,2 | 0,1 |
| Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 2 | 9611,1 | 1,7 |
| Ko‘chmas mulk bilan opyerasiyalar | 2 | 2692,8 | 0,5 |
| Boshqarish bo‘yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko‘rsatish | 2 | 101,7 | 0,1 |
| Boshqalar | 12 | 39228 | 6,8 |

**2022- yilning yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha zarar ko‘rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**
*(jamiga nisbatan %da)*



Zararning asosiy qismi, ya’ni 310928,8 mln. so‘mi (55,5 %) elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash hamda 144460,7 mln. so‘mi (25,8 %) ishlab chiqaradigan sanoat sohalariga to‘g‘ri keldi.

**2022- yilning yanvar-avgust oylarida hududlar kesimida zarar ko‘rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**

| | *Korxonalar soni* | *Zarar ko‘rgan korxonalarning ulushi, %da* | *Zarar summasi, mln. so‘m* |
|---|---|---|---|
| **Viloyat bo‘yicha:** | **69** | **100** | **560465,4** |
| *shaharlar:* | | | |
| Nurafshon | 1 | 0,1 | 2,5 |
| Olmaliq | 1 | 2,1 | 11764,2 |
| Angren | 16 | 42,4 | 237592,4 |
| Ohangaron | 3 | 0,5 | 3039,9 |
| Bekobod | 1 | 0 | 142,4 |
| Chirchiq | 4 | 6,1 | 34206,8 |
| Yangiyo'l | 3 | 1,2 | 6570,8 |
| *tumanlar:* | | | |
| Oqqo‘rg‘on | 1 | 0,1 | 200,2 |
| Ohangaron | 2 | 29,3 | 164801,7 |
| Bekobod | 1 | 0,9 | 5322 |
| Bo‘stonliq | 5 | 3 | 16904,8 |
| Quyi Chirchiq | 1 | 0,1 | 557 |
| Zangiota | 9 | 5,2 | 29252,8 |
| Yuqori Chirchiq | 4 | 2,2 | 12514,4 |
| Qibray | 6 | 5,8 | 32670,5 |
| Parkent | 1 | 0,1 | 129,7 |
| Chinoz | 3 | 0,2 | 953,7 |
| Yangiyo‘l | 4 | 0,2 | 931,1 |
| Toshkent | 3 | 0,5 | 2908,5 |

## Korxona va tashkilotlarning debitorlik va kreditorlik qarzdorligi holati[1)]

2022- yil 1- sentabr holatiga debitor qarzdorlikning umumiy hajmi 21920,6 mlrd. so'mni tashkil qildi, shundan muddati o'tgani 406,4 mlrd. so'mni yoki jami qarzdorlikning 1,9 %ini tashkil etdi.

Jami debitor qarzdorlik o'tgan yilga nisbatan 183,2 %ni tashkil qildi, muddati o'tgan debitor qarzdorlik 2021- yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 68,9 %ga kamaydi.

Hududlar bo'yicha ko'rilganda, debitor qarzdorligi yuqori ko'rsatkich Olmaliq shahar – 9706,9 mlrd. so'm (viloyat bo'yicha jami debitor qarzdorlikning 44,3 %i), Bekobod shahar – 3200,4 mlrd. so'm (14,6 %), Angren shahar – 1387,1 mlrd. so'm (6,3 %) va Qibray tumani – 1337,2 mlrd. so'm (6,1 %) hissasiga to'g'ri keldi.

### 2022- yil 1- sentabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha muddati o'tgan debitor qarzdorlikning tarkibi

| | *Jami, mlrd. so'm* | *undan:* | | | *Ichki idoraviy qarzlardan tashqari qarzdorlik* |
|---|---|---|---|---|---|
| | | *xaridor va buyurt-machilar* | *etkazib beruvchi va pudratchi-larga berilgan avanslar* | *ichki idora-viy* | |
| **Jami:** | **590,1** | **526,6** | **26,8** | **17,4** | **572,7** |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 281,1 | 264,4 | 12,9 | 0,5 | 280,6 |
| Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni | 175,2 | 172,3 | 0,7 | 0,0 | 175,2 |
| Qurilish | 0,4 | 0,0 | 0,0 | 0,4 | - |
| Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va motosikllarni ta'mirlash | 3,6 | 3,5 | 0,1 | - | 3,6 |
| Tashish va saqlash | 16,4 | 3,6 | - | - | 16,4 |
| Boshqalar | 113,4 | 82,8 | 13,1 | 16,5 | 96,9 |

[1)] *Budjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jalik korxonalari, fermer va dehqon xo'jaliklari, sug'urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.*

Monitoring qilinadigan xo'jalik birlashmalarining 2022- yil 1- sentabr holatiga jami debitor qarzdorligi 14593,3 mlrd. so'mni yoki viloyat bo'yicha jami debitor qarzdorlikning 66,4 %ini, shu jumladan muddati o'tgani – 125,8 mlrd. so'mni yoki mos ravishda 0,9 %ni tashkil qildi.

Monitoring qilinadigan xo'jalik birlashmalarining eng ko'p debitor qarzdorligi "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati – 9562,1 mlrd. so'm (65,5 %), "O'zbekiston metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati – 2998,2 mlrd. so'm (20,5 %), "Issiqlik elektr stansiyalari" aksiyadorlik jamiyati – 781,3 mlrd. so'm (5,4 %), "Hududiy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyati – 669,9 mlrd. so'm (4,6 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Monitoring qilinadigan xo'jalik birlashmalarining debitor qarzdorlikdagi eng ko'p o'sishi "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatida – 4,3 barobar (7312,9 mlrd. so'm), "Issiqlik elektr stansiyalari" aksiyadorlik jamiyati – 151,6 % (266,0mlrd. so'm) va "Hududiy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyati – 120,9 % (115,8 mlrd. so'm) kuzatildi.

Debitor qarzdorlik "O'zavtosanoat" aksiyadorlik jamiyatida – 98,8 martaga (- 472,0 mlrd. so'm), "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik kompaniyasida – 120,7 %ga (- 76,9 mlrd. so'm) kamaygan.

2022- yil 1- sentabr holatiga kreditor qarzdorlikning umumiy hajmi 13753,0 mlrd. so'mni, undan muddati o'tgani 558,7 mlrd. so'mni yoki jami kreditor qarzdorlikning 4,1 %ini tashkil etdi.

Jami kreditor qarzdorlik o'tgan yilga nisbatan 99,6 %ni tashkil qildi, muddati o'tgan kreditor qarzdorlik 2021- yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 115,2 %ga ko'paygan.

Monitoring qilinadigan xo'jalik birlashmalarining 2022- yil 1- sentabr holatiga jami kreditor qarzdorligi 740,3 mlrd. so'mni yoki viloyat bo'yicha jami qarzdorlikning 33,6 %ini, shu jumladan muddati o'tgani – 8,1 mlrd. so'mni yoki mos ravishda 1,5 %ni tashkil qildi

Muddati o'tgan kreditor qarzdorlik hajmi 105,4 mlrd so'mga, shu jumladan "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyatida – 102,0 mlrd so'mga kamayib, viloyat bo'yicha jami muddati o'tgan kreditor qarzdorlikning 50,2 %ini tashkil etdi.

**2022- yil 1- sentabr holatiga vazirlik va idoralarning debitor qarzdorligi**
*(jamiga nisbatan %da)*




**2022- yil 1- sentabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha muddati o‘tgan kreditor qarzdorlikning tarkibi**

| | *Jami, mlrd. so‘m* | *undan:* | | | | *Muddati o‘tgan qarzdorlikning ulushi, %da* |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | *yetkazib beruvchilar va pudratchilarga* | *Byudjetga to‘lovlar* | *davlat maqsadli fondlariga to‘lovlar* | *ichki idora-viy* | |
| **Jami** | **558,7** | **358,1** | **2,3** | **-** | **1,2** | **0,1** |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 28,9 | 10,4 | 2,2 | - | 0,2 | - |
| Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni kondisiyalash | 527,6 | 346,6 | 0,1 | - | - | 0,1 |
| Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va motosikllarni ta’mirlash | 0,2 | 0,1 | - | - | - | - |
| Tashish va saqlash | 1,8 | 1,0 | - | - | 0,8 | - |
| Boshqalar | 0,2 | - | - | - | 0,2 | - |

**Xo'jalik boshqaruv organlarida jami kreditor qarzdorlikning debitorlikka nisbatan o'sishi**

| | *Kreditor qarzdorlikning debitorlikdan oshishi* | |
|---|---|---|
| | *mlrd. so'm* | *debitorga nisbatan %da* |
| "O'zdonmahsulot" aksiyadorlik kompaniyasi | 138,4 | 44,2 |
| "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati | 15,6 | 23,3 |
| "O'zavtosanoat" aksiyadorlik jamiyati | 0,1 | 43,6 |

Jami kreditor qarzdorlikning debitor qarzdorlikdan oshishi "O'zdonmahsulot" aksiyadorlik kompaniyasi – 138,4 mlrd. so'm (44,2%), "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati 15,6 mlrd. so'm (23,3 %), "O'zavtosanoat" aksiyadorlik jamiyati – 61,1 mln. so'm (43,6) hissasiga to'g'ri keladi.

Bunday holatlar korxonalarning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Hududlar bo'yicha ko'rilganda, yuqori kreditor qarzdorlik miqdori Olmaliq shahar – 2548,7 mlrd. so'm (18,5 %), Angren shahar – 1757,2 mlrd. so'm (12,7 %) va Chirchiq shahar – 1537,9 mlrd. so'm (11,2 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Bunga qarama-qarshi, kreditor qarzdorlikning nisbatan past ko'rsatkichlarini Bekobod tumani – 1,8 mlrd. so'm (0,01 %), Quyi Chirchiq tumani – 50,0 mlrd. so'm (0,4 %) va Yangiyo'l – 55,7 mlrd. so'm (0,4 %) shahrida ko'rish mumkin.